

**SOG'LOM AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY-ESTETIK
TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI**

Orzimatov Xoshimjon Murodjon o'g'li
*Namangan davlat universiteti Musiqa ta'limi va
madaniyatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish, ularda estetik tarbiyani yuksaltirishda musiqa san'ati musiqa san'ati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan tarbiya vositasi ekanligi va har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda musiqa va musiqiy tarbiyaning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *san'at, musiqa, estetik tarbiya, ta'lim va tarbiya, madaniyat, ma'naviyat.*

**ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ЭСТЕТИЧЕСКОМ
ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ**

Аннотация: *В статье подчеркивается значение музыки и музыкального образования в воспитании подрастающего поколения во всех его аспектах, повышении его эстетического воспитания, а также значение музыки и музыкального образования в воспитании всесторонне зрелой и всесторонне развитой личности.*

Ключевые слова: *искусство, музыка, эстетическое воспитание, воспитание и воспитание, культура, духовность.*

**THE IMPORTANCE OF MUSIC ART IN AESTHETIC EDUCATION OF
STUDENTS AND YOUNG PEOPLE**

Abstract: *The article highlights the importance of music and musical education in raising the young generation in all aspects, raising their aesthetic education, and the importance of music and musical education in raising an all-round mature and well-rounded person.*

Key words: *art, music, aesthetic education, education and training, culture, spirituality.*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni qaror toptirish, xalqimizni, jumladan, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning hal qiluvchi omiliga aylandi. Ushbu tarixiy jarayonda milliy o'zlikni anglash, milliy mafkuraning qaror topishi va uning har bir fuqaro ongida mustahkam o'rin olishida, xalqimizning qadim qadriyatlari-yu an'analari aks etgan milliy musiqa san'atining ahamiyati beqiyosdir.

Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi"[1]. Shunday ekan, san'atning sirli imkoniyatlaridan foydalanish jamiyatda ijodkorlik, yaratuvchanlik muhitini yaratish uchun sa'nat nazariyotchilarini o'qitish tizimini

takomillashtirish, o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda musiqa san'atiga oid barcha yo'nalishlarni o'qitish tizimi samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularda musiqa vositasida estetik madaniyatni shakllantirish muhim masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Darhaqiqat, musiqa asarlari barkamol avlodni har tomonlama kamolga yetishida, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil fikrlash borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatilsa, samaradorlikka erishish mumkin. Milliy ma'naviyatni yuksaltirishda tabiiyki, musiqiy san'at, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar muhim tarbiyaviy omillardan sanaladi. O'z navbatida musiqa asarlarining tarbiyaviy tomonlaridan foydalanib o'quvchilarni fikr yuritishga, mustaqil mushohada qilishga o'rgatishimiz zarur. Kishi qanday musiqa tinglagani ma'qul? Psixologik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ko'ngillarga orom baxsh etib, ko'z oldingizda tabiat go'zalligini, yomg'ir shivirlashi-yu, qor parchalarining o'ynoqlab yog'ayotgan manzaralarini gavdalantiradigan musiqa tinglash asablar uchun nihoyatda foydalidir. Musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.) ni, uning tabiati (mijozini) ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir. Shu o'rinda musiqaning insonga ta'siri yuzasidan ayrim ma'lumotlarni keltiramiz:

Farobiy (873 - 950) qomusiy olim buyuk musiqashunos, uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlar bilan chegaralanmay, amaliy ifodasini ham topgan. U o'z davri uchun yangilik bo'lgan musiqa cholg'usi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani haqida rivoyatlar ko'p. U o'zining "Musiqa haqida katta kitob" asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa ehtiroslarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va, nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi. [5.-B.32.].

Ta'kidlash joizki, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish uchun ularda estetik tarbiyani yuksaltirishda musiqa san'ati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan tarbiya vositasi bo'lib, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch berishi ahamiyatlidir.

Insondagi go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirish noo'rin. Yani, odam o'zi yashayotgan jamiyatda, insonlarda, tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, uni ma'naviy barkamol inson deb bo'lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalash vositasidir[3.-B. 6.].

Zamonaviy sharoitda yoshlarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari va natijalari,

mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning estetik holatlari; did va manfaatlarining muayyan holati; estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti ta'siri, ularning ijtimoiy-estetik faolligining namoyon bo'lishida kuzatiladi. Shuning uchun ham, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish orqali mamlakatimizda musiqa ta'limi pedagoglarining kasbiy salohitini oshirish, san'atni tushunish dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o'stirish va bu orqali o'quvchilarda musiqiy tafakkurni rivojlantirish tizimini isloh qilishga erishish mumkin bo'ladi[4.-B.395.].

Zero, san'at, bir tomondan, davrning "ijtimoiy-tarixiy voqealari ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat va har bir san'atkorning estetik ehtiyojlarini aks

ettiruvchi" [6.-B.94.] estetik idealni gavdalantirishning asosiy sohasi bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning mohiyat-mazmunini o'zlashtirish, ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilash maqsadlariga xizmat qiladi.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda musiqa va musiqiy tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Zero, buyuk mutafakkir Farobiy "Shaxsni faqat ta'lim va tarbiya bilan yaratish mumkin", degandi. Qadim bir yunon risolasida: "...kimda-kim musiqa san'atiga murojaat etsa, uning nomiga hech qachon dog' tushmaydi... musiqa ta'sirida yuksalib, o'ziga, Vataniga katta foyda keltiradi, hech qayerda muvozanatni buzmaydi, hamma yerda uyg'unlik, donolik va tartibga qat'iy rioya qiladi", - deyilgan edi. Qadimga yunon faylasufi Aflotun (Platon): "...musiqa - davlat xaqidagi ta'limotning tarkibiy qismidir, davlatda insonni ulug'laydigan kuylar yangrashi

lozim", - desa, Arastu: "Musiqa she'riyat nazariyasining bir bo'lagi", "Musiqa insonni jamiyatga yaqinlashtiradi, tinglab ruhan poklanadi, taniga shifo beradi"[2.-B.191.]. - deb ta'kidlagan bo'lsa, Abu ali ibn Sino fikricha, "musiqa insonda hayotbaxsh, oliyanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning intellektual va axloqiy qiyofasini shakllantiradi". U musiqani insonning go'dakligidan to umrining oxirigacha zarur va foydali bo'lgan badiiy estetik va tarbiyaviy qadriyat deb hisoblaydi[8.-B.15-16.].

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan "Arablar faylasufi" sifatida nom taratgan Al-Kindiy (801-866) falsafa, matematika, tarix va astronomiya sohalarida o'z davrining buyuk allomasi bo'lib qolmay, u musiqa bilan ham jiddiy shug'ullangan. Uning fikricha, musiqa o'z muvozanatini yo'qotgan kishilar axloqini tuzatib, ularni yomonlikdan tiyadi[3.-B.9.]. Musiqa kishilarning sog'lom yashashi uchun foydali hamda musiqa sadolari vositasi bilan qalb kuchlari tartibga tushadi.

Musiqaning tarbiyaviylik xususiyatiga odatda ikki xil yondashiladi.

- Birinchidan, musiqa harakatlantiruvchi va poklovchi ma'naviy hodisa.

- Ikkinchidan, musiqa - ko'ngilochar va ermakka asoslangan manfaatdorlik manbai. Har ikkala yondashuvda ham musiqaning tarbiya jarayonlaridagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Chunki masalaga ratsional yondashadigan bo'lsak, har qanday musiqa ma'naviy hodisaga aylanmagani kabi barcha musiqalar ham oddiygina manfaatdorlik manbai bo'lavermaydi[7.-B.37.]. Chinakam musiqa madaniyat va ma'naviyat mulki sifatida tarbiya jarayonlariga yanada yaqinlashadi. Musiqani tinglash, his etish, munosabat bildirish kabi estetik madaniyat tizimi tarbiyaviylik xususiyati orqali izohlanadi.

Musiqa san'ati boshqa san'at turlari kabi o'zida hayotni aks ettiradi. Yoshlarga musiqa sirlarini, mazmun-mohiyatini teran o'rgatib borish ularning yetuk san'at darg'alari bo'lib har tomonlama uyg'un kamol

topishlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Kuy-qo'shiqqa mehr-muhabbat bolalikdan boshlanishi lozim. Musiqa va san'atning hayotbaxsh ta'siri yoshlar hayotida o'zgacha o'rin tutadi. Bola darsdan bo'sh vaqtda o'zi xohlagan musiqa turi bilan shug'ullanishi natijasida kelgusi kasbi uchun zamin tayyorlaydi, qalbida odamiylik, ezgulik kabi olijanob fazilatlar bo'y ko'rsatadi. Musiqani nafaqat maxsus o'quv maskanlari, musiqa maktablari va to'garak mashg'ulotlarida, balki oilada ham o'rganish uchun yaxshi muhit yaratish lozim[7.-B.38.].

Bolalikda, yoshlikda olingan musiqiy ta'lim har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashda uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi, aqliy va ma'naviy yetukligiga xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, o'spirinlik davrida (12-15 yosh) olinadigan musiqiy ta'limning o'rni beqiyosdir. Musiqiy ta'lim kishining erkinmuloqot, mustaqil fikrlash, jamoatchilik ichida faollik xususiyatlarini oshiradi. Estetik tarbiya jarayonida axloq va ong shakllanadi, shaxsning madaniyati, badiiy saviyasi oshadi, ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Estetika lotincha "Ectetikos", ya'ni "his etaman" degan ma'noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg'usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi - o'quvchilarni tabiat, jamiyat va san'atdagi go'zalliklarni idrok etish, ularni to'g'ri tushunib yetish, qadriga yetish, hayotga qayta go'zallik olib kira olishga o'rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. [3.-B.192.].

Yoshlarga ilk bor badiiy ma'lumot berish, musiqa san'ati orqali ularni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalab borishda maktabgacha tarbiya muassasalarining o'rni muhim ahamiyatga ega. Maktabda musiqa fani o'z maqsadi va e'tibori bilan o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish, uni ongli va emotsional idrok etish malakasini ortiradi. Ularda estetik his-tuyg'ularni tarbiyalash, axloqiy sifatlarni shakllantirish, ijodiy qobiliyat va badiiy didni o'stira borish orqali haqiqiy san'atni sevadigan, uniqadrlaydigan yoshlar qilib tarbiyalaydi. O'quvchilarning qalblarini quvonchga san'atdan olinadigan shavq va zavqqa to'ldiradi. Bu eng muhim omil - musiqaning mo'jizasidir[3.-B.192-193.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki musiqa san'ati go'zallikni his etish tuyg'ularining rivojlanishiga va barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim vositalardan biridir. Mamlakatimizda musiqa san'atini yanada rivojlantirish orqali o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda yosh avlod ong-shuurida milliy qadriyatlarni madh etuvchi yangi ijodiy g'oyalar yaratilishiga erishish, shuningdek, yangi iste'dod egalarini kashf etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. 26.08.2019 yil.
2. "Antichnaya muzыkalnaya estetika: Vstupleniye A.F.Loseva i sbornik trudov". M., 1960 g.
3. B.Sh.Irzayev. Mustaqillik yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishi. O'zR FA Tarix instituti. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015, - 344 b.

4. D.R.Murodova. BO‘LAJAK MUSIQA TA‘LIMI O‘QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. ISSN: 2181-3337. 2022 № 1.

5. Karimova D.A., Xonazarova R. O‘QUVCHI-YOSH LARNI ESTETIK TARBIYALASHDA “MUSIQA MADANIYATI” FANI OLDIDA TURGAN DOLZARB MASALALAR. ZAMONAVIY TA‘LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2018, 7

6. Mahmudov T., Olimov Ya. O‘zbekiston san‘atida inson omili. - Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1988.-B.94.

7. Rudakiy ALLANBAYEV. YOSH LAR MA‘NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA SAN‘ATINING O‘RNI. O‘zDSMI xabarlarlari – 2018/1(5)

8. Choriyev T.R. Xudoyev G‘.M. Sadriddin Ayniy ijodida musiqa san‘ati va musiqashunoslik // “San‘at yo‘nalishlarida yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami. - Buxoro, 2013 y. - B 15-16